WAYS OF FINANCING THE SOCIAL PROTECTION SYSTEM IN UZBEKISTAN BASED ON INTERNATIONAL EXPERIENCE

ПУТИ ФИНАНСИРОВАНИЯ СИСТЕМЫ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ В УЗБЕКИСТАНЕ НА ОСНОВЕ МЕЖДУНАРОДНОГО ОПЫТА

Xushvaqtova Shahrizoda O'ktam qizi

Xalqaro tajribalar asosida O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimini moliyalashtirish yo'llari

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimini moliyalashtirishda xalqaro davlatlatlarning tajribasidan foydalaninsh,.va bu orqali rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda qo'llanilayotgan ijtimoiy himoya modellari hamda moliyaviy mexanizmlar to'g'risida so'z boradi. O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlash va modernizatsiya qilishga qaratilgan samarali yondashuvlar aniqlanadi. Shuningdek, tizimning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, huquqiy bazani takomillashtirish hamda mavjud iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni bartaraf etish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Tadqiqot natijalari milliy ijtimoiy himoya tizimining samaradorligi va qamrovini oshirishga qaratilgan siyosiy tavsiyalarni ishlab chiqishi to'g'risida fikr mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy ta'minot, ijtimoiy himoya, moliyalashtirish, davlat moliyasi, ijtimoiy siyosat,davlat byujeti, Kanada ijtimoiy himoyasi, Norvegiya ijtimoiy himoyasi, YAIM, Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT), Xalqaro Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyoti (XIHT)

ABSTRACT

This article examines the use of international experience of various countries in financing the social protection system in Uzbekistan and discusses the social protection models and financial mechanisms applied in developed and developing countries. Effective approaches aimed at strengthening and modernizing the social

protection system in Uzbekistan are identified. In addition, special attention is paid to ensuring the financial sustainability of the system, improving the legal framework, and addressing existing economic and social challenges. Based on the research findings, considerations are presented on the development of policy recommendations aimed at increasing the effectiveness and coverage of the national social protection system

Keywords: social security, social protection, financing, public finance, social policy

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается использование международного опыта различных государств в финансировании системы социальной защиты в Узбекистане, а также анализируются модели социальной защиты и финансовые механизмы, применяемые в развитых и развивающихся странах. Определяются эффективные подходы, направленные на укрепление и модернизацию системы социальной защиты в Узбекистане. Кроме того, особое внимание уделяется вопросам обеспечения финансовой устойчивости системы, совершенствования правовой базы и устранения существующих экономических и социальных проблем. По результатам исследования формулируются предложения и рекомендации по разработке государственной политики, направленной на повышение эффективности и охвата национальной системы социальной защиты.

Ключевые слова: социальное обеспечение, социальная защита, финансирование, государственные финансы, социальная политика

Jahonda aholining ijtimoiy himoyasini ta’minlash va uni moliyalashtirish yetakchi o’rinni tutganidek, hozirgi zamonda O’zbekistonda ham ijtimoiy himoyani moliyalashtirish asosiy ro’l o’ynamoqda va bu aholining turmush darajasini yaxshilash, kambag’allik darajasidan chiqarish bilan bog’liqdir, albatta. Aholini ijtimoiy himoya tizimi har qanday davlatning iqtisodiy barqarorligi, ijtimoiy adolati va aholining turmush darajasini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Aholini ijtimoiy

himoya tizimi — bu insonlarning minimal turmush darajasini ta’minlash, ijtimoiy xatarlar ta’sirini kamaytirish va aholining ehtiyojmand qatlamlarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan davlat siyosatining muhim bo‘g‘inidir. Mamlakatda iqtisodiy o‘zgarishlar chuqurlashib borgani sari ijtimoiy himoya tizimining samaradorligi, uning moliyaviy manbalari va barqarorligi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki har qanday ijtimoiy dastur yoki xizmatning amaliy natijasi uning moliyalashtirilish darajasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Shunday ekan ijtimoiy himoya tizimini moliyalashtirish — bu pensiya ta’minoti, nafaqalar, bandlik dasturlari, kam ta’minlangan oilalarni qo‘llab-quvvatlash, nogironligi bo‘lgan shaxslarni himoyalash, sog‘liqni saqlashning ayrim yo‘nalishlari va favqulodda vaziyatlarda aholiga yordam ko‘rsatish kabi keng ko‘lamli mexanizmlarni resurs bilan ta’minlash jarayonidir. Ijtimoiy himoya tizimini moliyalashtirish keng ko‘lamli jarayon bo‘lib, davlat budjeti, majburiy to‘lovlar, ijtimoiy sug‘urta tizimlari, xalqaro moliya institutlari, mahalliy hokimiyatlar hamda xususiy sektor tomonidan shakllantiriladigan moliyaviy resurslarni o‘z ichiga oladi. Mazkur tizimning samarali ishlashi uchun ushbu manbalar o‘rtasida optimal muvozanat yaratilishi, moliyalashtirish mexanizmlarining shaffofligi, barqarorligi va maqsadga yo‘naltirilganligi muhim hisoblanadi. Ushbu jarayonning barqarorligi nafaqat ijtimoiy barqarorlikni, balki iqtisodiy o‘sish, mehnat bozorining rivojlanishi va aholining farovonlik darajasiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy himoya tizimining samarali faoliyat yuritishi, avvalo, uning moliyaviy resurslari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, moliyalashtirish mexanizmlarining puxta tashkil etilishi davlatning ijtimoiy siyosati muvaffaqiyati uchun asosiy omillardan biri sanaladi. Bu borada . Xalqaro Mehnat Tashkilotining 2024-2026-yillarga mo‘ljallangan “World Social Protection Report” flagman hisobotiga ko‘ra, jahon bo‘yicha kamida bitta ijtimoiy himoyaga ega odamlar ulushi hozirda 52,4% ni tashkil etadi, bu 2015-yildagi 42,8% ga nisbatan o‘sishni bildiradi. Bu sezilarli yutuqdir. Biroq, shu progress sur’ati bilan, jahon miqyosida universal ijtimoiy

himoya qamroviga erishish uchun deyarli yarim asr – 2073 yilgacha vaqt kerak bo‘ladi. Qamrov darajalari daromad guruhlari bo‘yicha keskin farq qiladi.

- Yuqori daromadli mamlakatlar o‘rtacha 85,9% qamrovga erishib, universal qamrovga yaqinlashmoqda.
- Yuqori o‘rta daromadli mamlakatlar 71,2% ga ega.
- Past, o‘rta daromadli mamlakatlar esa faqat 32,4% qamrovga ega.

Boshqa tomondan, past daromadli mamlakatlar, ya’ni 2021-yil boshiga to’gri keladigan YaMD $1,085 dan kam bo‘lgan 26 ta eng kambag‘al mamlakat (shu jumladan 22 ta Afrika mamlakati) orqada qolmoqda. Ular faqat 9,7% qamrovga ega bo‘lib, 2015-yildan beri minimal yaxshilanish kuzatilgan. Bu past qamrov darajalarining asosiy sababi – ijtimoiy himoyaga uzluksiz yetarli sarmoya kiritilmasligidir.

- Yuqori daromadli mamlakatlar ijtimoiy himoyasiga (sog‘liqni saqlash xarajatlarini hisobga olmaganda) YaIMning o‘rtacha 16,2% ini sarflaydi.
- Yuqori o‘rta daromadli mamlakatlar 8,5% sarflaydi.
- Past o‘rta daromadli mamlakatlar faqat 4,2% ajratadi.
- Past daromadli mamlakatlar esa YaIMning atigi 0,8% ini ajratadi[1].

Bundan tashqar misol uchun Kanada davlati ijtimoiy himoya tizimi - rivojlangan, keng qamrovli va barqaror moliyaviy mexanizmlarga asoslangan tizimlardan biri hisoblanadi. Ushbu tizim aholining ijtimoiy zaif qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash, daromadlar tengsizligini kamaytirish va fuqarolarning munosib turmush darajasini ta’minlashga qaratilgan. Kanada ijtimoiy himoya tizimi federal, provinsial va mahalliy darajadagi boshqaruv organlari o‘rtasida vakolatlarning aniq taqsimlanishi asosida faoliyat yuritadi. Kanadada ijtimoiy himoya tizimi quyidagi asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi***:*** ***a)***pensiya ta’minoti; ***b)***ishsizlikdan

1 FINANCING SOCIAL PROTECTION FLOORS, JANUARY 2025

sug‘urtalash; ***d)***kam ta’minlangan oilalarga ijtimoiy nafaqalar; ***c)***bolalar va keksalarni qo‘llab-quvvatlash dasturlari***; e)***sog‘liqni saqlash tizimi orqali ijtimoiy kafolatlar. Mazkur yo‘nalishlar davlatning ijtimoiy siyosati doirasida moliyalashtiriladi va aholining deyarli barcha qatlamlarini qamrab oladi. *Kanada ijtimoiy himoya tizimini moliyalashtirishning asosiy manbalari quyidagilardan iborat:*

1. **Davlat byudjeti mablag‘lari**

Ijtimoiy himoya dasturlarining katta qismi federal va provinsial byudjetlar hisobidan moliyalashtiriladi. Federal hukumat umumiy siyosatni belgilaydi va yirik ijtimoiy dasturlarni moliyalashtiradi, provinsiyalar esa hududiy ehtiyojlardan kelib chiqib, qo‘shimcha moliyalashtirishni amalga oshiradi.

2. **Soliqlar va majburiy to‘lovlar**

Kanada ijtimoiy himoya tizimining muhim moliyaviy manbalaridan biri soliq tushumlaridir. Jismoniy shaxslarning daromad solig‘i, korporativ soliq va iste’mol soliqlari ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirishda muhim rol o‘ynaydi.

3. **Ijtimoiy sug‘urta badallari**

Ish beruvchilar va ishchilar tomonidan to‘lanadigan majburiy sug‘urta badallari pensiya va ishsizlik sug‘urtasi tizimini moliyalashtirishda asosiy manba hisoblanadi. Xususan, Kanada Pensiya Rejasi (Canada Pension Plan) aynan ushbu badallar orqali moliyalashtiriladi.

Kanada ijtimoiy himoya tizimining muhim jihatlaridan biri uning moliyaviy barqarorligidir. Davlat byudjeti rejalashtirish jarayonida ijtimoiy xarajatlarning uzoq muddatli prognozlari ishlab chiqiladi. Bundan tashqari, moliyaviy shaffoflik va hisobotlilik tizimi joriy etilgan bo‘lib, bu mablag‘lardan samarali foydalanishni ta’minlaydi.Kanada hukumatining so‘nggi statistik hisobotiga ko‘ra, hukumatlar (federal, provinsial/territorial va mahalliy) 2024/2025 moliyaviy yillarida ijtimoiy himoya, sog‘liqni saqlash va ta’lim sohalariga jami xarajatlarning 60.9 % dan ortig‘ini sarflagan. Bu ko‘rsatkich ijtimoiy himoyaga davlat e’tiborining yuqoriligini

ko‘rsatadi. Avvalgi ma’lumotlarga ko‘ra, 2019-yilda Kanada hukumati umumiy ijtimoiy himoya xarajatlarini $190.6 milliardga yetkazgan va bu xarajatlar jami byudjetning taxminan 23.9 % ini tashkil etgan2. Ushbu xarajatlar pensiya ta’minoti, oilalar va nogironlar bo‘yicha nafaqalar kabi asosiy ijtimoiy dasturlarni qamrab olgan. XIHT ma’lumotlariga ko‘ra, Kanada ijtimoiy xarajatlari YAIMga nisbatan taxminan 18 % atrofida bo‘lib, bu ko‘rsatkich bir qator rivojlangan davlatlarga nisbatan pastroq bo‘lishiga qaramay, barqaror ijtimoiy tizimni ifodalaydi. Shu bilan birga, ijtimoiy xarajatlar tarkibida ayrim tarmoqlarning ulushi o‘zgarib turadi: masalan, pensiyalar va sog‘liqni saqlash xarajatlari YAIMning qariyb 78 % atrofida bo‘lib, bu XIHT mamlakatlari orasida o‘rtacha darajada joylashadi. Public va private (xususiy) xarajatlar: XIHT statistikasi shuni ko‘rsatadiki, Kanadada xususiy ijtimoiy xarajatlar YAIMning taxminan 1.5 % ini tashkil qiladi – bu xususiy tibbiy sug‘urta va boshqa xususiy ijtimoiy xizmatlarni o‘z ichiga oladi.
Bu shuni anglatadiki, Kanada ijtimoiy himoya tizimi nafaqat davlat mablag‘lariga, balki shaxsiy sug‘urta mexanizmlariga ham tayanadi. Kanada 2019–2020 yillarda COVID19 pandemiyasi davrida ijtimoiy himoya bo‘yicha xarajatlarni sezilarli darajada oshirgan: pandemiya davrida ijtimoiy himoya uchun xarajatlar jami zarur xizmatlar bo‘yicha xarajatlarning taxminan 49.6 % ini tashkil etgan . Bu trend shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy himoya tizimi pandemiyaga qarshi kurashda va fuqarolarni himoya qilishda muhim rol o‘ynaydi hamda moliyaviy barqarorlikni ta’minlash uchun qo‘shimcha xarajatlarni talab qiladi. : XIHT davlatlari o‘rtasida ijtimoiy xarajatlar YAIMga nisbatan o‘rtacha taxminan 20–23 % ga yaqin bo‘lib, Kanada bu ko‘rsatkichga yaqin darajada joylashadi. Bu holat Kanada ijtimoiy himoya tizimining xalqaro standartlarga mosligini ko‘rsatadi.Qisqacha qilib aytganda YAIMga nisbatan barqaror daraja: Ijtimoiy himoya bo‘yicha xarajatlar YAIMning

2 Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). Social Expenditure Database (SOCX): Canada. — Paris: OECD Publishing, 2023.

taxminan 18 % ini tashkil etadi, bu esa davlatning umumiy ijtimoiy siyosati moliyaviy barqarorligini aks ettiradi. Shu o'rinda Shuni takidlash joizki ***Kanada tajribasi O'zbekiston uchun ijtimoiy himoya tizimini moliyalashtirishda muhim o'rnak bo'la oladi***. Xususan: ko'p manbali moliyalashtirish tizimini joriy etish; ijtimoiy sug'urta mexanizmlarini kengaytirish; davlat va xususiy sektor hamkorligini rivojlantirish. Mazkur tajribalarni milliy sharoitga moslashtirish orqali O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimining samaradorligi va barqarorligini oshirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Kanada davlatida ijtimoiy himoya tizimini moliyalashtirish kompleks va barqaror mexanizmlarga asoslangan. Davlat byudjeti, soliqlar va ijtimoiy sug'urta badallarining uyg'unlashuvi aholining ijtimoiy himoyasini yuqori darajada ta'minlashga xizmat qilmoqda. Ushbu tajriba O'zbekiston ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.Bugungi kunda rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy himoya tizimining samaradorligi, avvalo, uning barqaror va diversifikatsiyalashgan moliyalashtirish mexanizmlariga bog'liq. Ushbu jihatdan Norvegiya va Shvetsariya davlatlari ijtimoiy himoya tizimini moliyalashtirishda o'ziga xos va samarali modellarga ega bo'lib, ular xalqaro miqyosda e'tirof etilgan. Norvegiya davlati Skandinaviya mamlakatlari orasida eng rivojlangan ijtimoiy himoya tizimiga ega davlatlardan biri hisoblanadi. Norvegiyada ijtimoiy himoya tizimi "farovonlik davlati" (welfare state) modeli asosida shakllangan bo'lib, aholining barcha qatlamlari uchun keng qamrovli ijtimoiy kafolatlarni ta'minlashga qaratilgan. Norvegiyada ijtimoiy himoya tizimini moliyalashtirishning asosiy manbalari quyidagilardan iborat:

- davlat byudjeti mablag'lari;
- soliq tushumlari;
- ijtimoiy sug'urta badallari;
- neft va gaz sektoridan olinadigan daromadlar.

Norvegiya ijtimoiy dasturlarining katta qismi davlat byudjeti hisobidan moliyalashtiriladi. Mamlakatda yuqori darajadagi progressiv soliq tizimi joriy etilgan bo‘lib, bu ijtimoiy xarajatlarni barqaror moliyalashtirish imkonini beradi. Norvegiya ijtimoiy himoya tizimining muhim xususiyatlaridan biri neft va gaz sohasidan olinadigan daromadlarning ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo‘naltirilishidir. Davlat neft jamg‘armasi (Government Pension Fund Global) orqali ushbu daromadlar jamg‘arilib, uzoq muddatli ijtimoiy majburiyatlarni moliyalashtirishga xizmat qiladi. Bu esa ijtimoiy tizimning moliyaviy barqarorligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Shvetsariya ijtimoiy himoya tizimi o‘zining markazlashmagan va sug‘urta asosidagi moliyalashtirish modeli bilan ajralib turadi. Ushbu tizim davlat, xususiy sektor va fuqarolarning faol ishtirokiga asoslanadi. Shvetsariyada ijtimoiy himoya tizimini moliyalashtirish quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- majburiy ijtimoiy sug‘urta;
- shaxsiy mas’uliyat;
- davlat va xususiy sektor hamkorligi.

Mazkur yondashuv ijtimoiy himoya tizimining moliyaviy yukini faqat davlat zimmasiga yuklamasdan, uni jamiyatning barcha ishtirokchilari o‘rtasida taqsimlashga imkon beradi. Shvetsariyada pensiya, sog‘liqni saqlash va ishsizlik sug‘urtasi asosan majburiy sug‘urta badallari orqali moliyalashtiriladi. Har bir fuqaro va ish beruvchi belgilangan miqdorda badal to‘laydi. Shu bilan birga, ijtimoiy yordam va kam ta’minlangan aholini qo‘llab-quvvatlash dasturlari davlat byudjeti va mahalliy hokimiyat organlari tomonidan moliyalashtiriladi Shvetsariyada kantonlar va kommunalar ijtimoiy himoya tizimini moliyalashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Ular hududiy ehtiyojlardan kelib chiqib, qo‘shimcha ijtimoiy dasturlarni ishlab chiqadi va moliyalashtiradi. Bu esa ijtimoiy xizmatlarning manzilliligini va samaradorligini oshiradi. Norvegiya va Shvetsariya ijtimoiy himoya tizimlarini moliyalashtirishda umumiy va farqli jihatlarga ega. Norvegiyada davlat byudjeti va tabiiy resurslardan olinadigan daromadlar asosiy rol o‘ynasa, Shvetsariyada sug‘urta

asosidagi va markazlashmagan moliyalashtirish ustunlik qiladi. Har ikkala model ham ijtimoiy himoya tizimining barqarorligi va samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi. Norvegiya va Shvetsariya tajribasi O‘zbekiston ijtimoiy himoya tizimini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan: ijtimoiy sug‘urta mexanizmlarini kengaytirish; moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalash; hududiy boshqaruv organlarining rolini kuchaytirish. Ushbu tajribalarni milliy sharoitga moslashtirish orqali O‘zbekistonda ijtimoiy himoya tizimining moliyaviy barqarorligi va samaradorligini oshirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Norvegiya va Shvetsariya davlatlarida ijtimoiy himoya tizimini moliyalashtirish samarali, barqaror va uzoq muddatli strategiyalarga asoslangan. Davlat byudjeti, soliqlar, ijtimoiy sug‘urta badallari hamda xususiy sektor ishtirokining uyg‘unlashuvi aholining ijtimoiy farovonligini ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Ushbu ilg‘or tajribalar O‘zbekiston ijtimoiy siyosatini takomillashtirishda muhim ilmiy-amaliy asos bo‘la oladi. Norvegiya va Shvetsariya kabi rivojlangan davlatlarda ijtimoiy himoya bo‘yicha xarajatlarning YAIMga nisbati xalqaro miqyosda muhim ko‘rsatkich sifatida qaraladi. Xalqaro iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, ijtimoiy himoyaga ajratiladigan umumiy xarajatlar YAIMga nisbatan o‘rtachasidan farq qiladi. Umumiy ijtimoiy xarajatlar YAIMning taxminan 20–25% atrofida bo‘lib, bu ko‘rsatkich Skandinaviya va G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida yuqoriroq darajada saqlanadi.

- Masalan, 2010-yillar davomida Norvegiyada ijtimoiy himoya xarajatlari YAIMning **23**–25% atrofida bo‘lgan, bu esa ijtimoiy siyosat yo‘nalishlari bo‘yicha yirik davlat xarajatlaridan biri hisoblanadi.
- Shvetsariya ham ijtimoiy himoyaga sezilarli mablag‘ ajratadi: federal statistika byurosining ma’lumotlariga ko‘ra, 2022-yilda ijtimoiy ta’minotga ketgan xarajatlar jami 207.8 mlrd Shveytsariya frankini tashkil etdi.

Bu statistika Shvetsariya va Norvegiyada ijtimoiy himoya tizimining davlat badalidan mustahkam moliyaviy qo‘llabquvvatlanishini ko‘rsatadi. Shuningdek,

buning YAIMdagi ulushi qonunlar orqali belgilangan ijtimoiy kafolatlar va keng qamrovli ijtimoiy xizmatlar tufayli yuqoriroq bo‘ladi. Norvegiyada ijtimoiy himoya xarajatlari tarkibida pensiyalar, sog‘liqni saqlash, ishsizlik nafaqalari va oila manfaatlarini qo‘llabquvvatlash bo‘limlari mavjud. XIHT nazariyasiga ko‘ra, barcha XIHT mamlakatlaridagi umumiy ijtimoiy xarajatlarning asosiy ulushi — pensiya va sog‘liqni saqlash sohasidan iborat. Masalan: XIHT bo‘yicha pensiyalarga o‘rtacha 7.7% YAIM sarflanadi, sog‘liq va sog‘liqni saqlash xizmatlariga esa 5.8% YAIM atrofida; Norvegiya va Shvetsariya kabi mamlakatlarda bu ko‘rsatkichlar yuqoriroq bo‘lishi mumkin. Bunday holat pensiya va sog‘liqni saqlash xizmatlariga qaratilgan ijtimoiy xarajatlarning davlat byudjetidagi ulushi haqida tushuncha beradi. Bu esa fuqarolarni nafaqa bilan ta’minlash, tibbiy xizmatlar sifati va umuman ijtimoiy xilmaxillikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. XIHT ma’lumotlariga ko‘ra, xususiy ijtimoiy xarajatlar — bu davlatdan tashqari xususiy sug‘urta, ijtimoiy xizmat xarajatlari va shaxsiy jamg‘armalar orqali amalga oshiriladigan xarajatlar bo‘lib, bir qator mamlakatlarda katta ulushni egallaydi. Xususan, Shvetsariyada xususiy ijtimoiy xarajatlar YAIMning taxminan 13.2% ini tashkil etadi — bu ko‘rsatkich mamlakatlari orasida eng yuqori darajalardan biridir. Bu holat shuni ko‘rsatadiki, Shvetsariya ijtimoiy himoyani nafaqat davlat byudjeti orqali, balki shaxsiy sug‘urta va bozor mexanizmlari orqali ham moliyalashtiradi. Xususiy ijtimoiy xarajatlar yuqori bo‘lgan mamlakatlarda, odatda shaxsiy pensiya va tibbiy sug‘urta tizimi ham mustahkam rivojlangan bo‘ladi. Norvegiyada ijtimoiy xarajatlar YAIMning yuqori foizini egallaydi, buning sababi yuqori soliqlar va kuchli ijtimoiy sug‘urta mexanizmlari, shuningdek tabiiy resurslardan olinadigan daromadlar (masalan neft va gaz) orqali moliyalashtiriladi. Shvetsariyada xususiy ijtimoiy xarajatlarning katta ulushi davlat tizimi bilan uyg‘unlashib, fuqarolarga keng ijtimoiy xizmatlar hamda xususiy sug‘urta imkoniyatlarini taklif etadi. XIHT ma’lumotlariga ko‘ra, ijtimoiy xarajatlar YAIMga nisbatan barqaror darajada qolmoqda, biroq demografik o‘zgarishlar pensiyalar va sog‘liqni saqlashga bo‘lgan xarajatlarni oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. FINANCING SOCIAL PROTECTION FLOORS, JANUARY 2025

2. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). *Social Expenditure Database (SOCX): Canada*. — Paris: OECD Publishing, 2023.

3. Statistics Canada. *Threefifths of total federal, provincial, territorial and local spending went to social protection, health care and education in 2019*. — Statistics Canada, 2020

4. Government of Canada. *Social Security and Social Protection System in Canada*. — Ottawa: Government of Canada, 2022.

5. World Bank. *Social Protection and Labor Systems in Canada*. — Washington, DC: World Bank Group, 2022

6. OECD. *Social spending overview and data on public and private social expenditure*. — OECD Publishing, 2025 (SOCX Database).

7. OECD. *Social Expenditure Database (SOCX): Norway*. Paris: OECD Publishing, 2023

8. Swiss Federal Social Insurance Office. *Annual Report 2023: Social Protection in Switzerland*. Bern, 2023.

9,International Labour Organization. *World Social Protection Report 2020–2022: Norway and Switzerland*. Geneva, 2022.

10. Barr, N. *The Economics of the Welfare State*. Oxford: Oxford University Press, 2012.